

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUD TIZMIDA TERGOV SUDYASI INSTITUTINING O'RNI VA ROLI

Behruz Ergashov

Osiyos xalqaro universiteti o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20166855>

Annotatsiya. So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarning tub zamirida inson qadri va uning sha'ni yotadi desak adashmagan bo'lamiz. Bosh qomusimizning yangi tahrirda qabul qilinishi o'laroq, moddiy va prosessual normalarimizga tuzatishlar va o'zgartirishlar kiritilishi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sud tuzilmasining ochiqlik va shaffoflik tarzida faoliyatini amalga oshirayotgani va boshqa bir qancha holatlar fikrimizning yorqin misolidir. Ayniqsa sud-huquq tizmidagi o'zgarishlar, jumladan muhtaram prezidentimiz tashabbus va takliflari natijasida tergov sudyasi institutining joriy qilinishi mamlakatimizdagi inson huquqlarini va uning manfaatlarini uchun beqiyos xizmat qiladi. Mazkur maqolada jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda tashkil qilingan tergov sudyasi institutining o'rni hamda ularning vazifalari, xizmat doirasi, nima maqsadda ushbu lavozim joriy qilingani haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Sud tizmi, jinoyat ishlari bo'yicha sudlar, tergov tushunchasi, tergov sudyasi instituti va uning vazifalari, moddiy va prosessual normalar.

Mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish masalasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada, shubhasiz sud-tergov faoliyatini isloh qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Chunki, sud-tergov amaliyoti inson huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlash bo'yicha samarali mexanizmlar to'liq ishga solinmaganligi, shuningdek, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxsning erkinlik va shaxsiy daxlsizlikka oid konstitutsiyaviy huquqlarini sud orqali ishonchli ta'minlash choralari kuchaytirish zarurati mavjudligini ko'rsatmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olib yurtimizda yangi tahrirdagi konstitutsiya loyihasi ishlab chiqildi va **01.05.2023 –yildan e'tiboran kuchga kirdi**. Bosh qomusdagi o'zgarishlar qonunlar va qonun osti hujjatlarda ham o'z ifodasini topdi desak adashmagan bo'lamiz. Mavzumizga bevosita aloqador hisoblangan qomusimizning 27-moddasiga ko'ra, hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emasligi; hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yilishi, shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi kabi normalar belgilandi.¹

Demak, Bosh qomusimizdagi ushbu normalarni hayotga to'liq joriy etish uchun bizga yangi islohotlarni o'tkazish hayotiy zaruratdir. Yurtimizdagi sud –huquq tizmini isloh qilish jarayonida qonunlar va qonun osti hujjatlarining o'rni beqiyos. Muhtaram yurtboshimizning tashabbuslari va faolliklari natijasida, **2024 yilning 10 iyun kuni imzolangan “Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident Farmoni sudlar faoliyatida ochiqlik, shaffoflikni ta'minlash bilan bir qatorda, fuqaro va tadbirkorlarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.**

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -2023

Ushbu farmonga muvofiq, **2025 yil 1 yanvardan jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlarida tergov sudyasi lavozimi kiritildi.**

Xo'sh, tergov sudyasi qanday lavozim? Qaysi vazifalarni bajaradi? Tergov sudyasi – ishni sudga qadar yuritish bosqichida, ishni sudga qadar yuritish uchun mas'ul organlarning iltimosnomalari va manfaatdor shaxslarning shikoyatlarini ko'rib chiqish va hal qilish orqali shaxslarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlanishi ustidan sud nazoratini amalga oshirishga vakolatli sudyadir. Yuqorida qayd qilingan prezident farmoniga muvofiq, **2025 yil 1 yanvardan:**

- jinoyat ishlari bo'yicha sudga qadar ish yurituv davrida protsessual qarorlarga sanksiya berish masalasi jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlarida alohida sudyalari – tergov sudyalari tomonidan ko'rib chiqilishi tartibi joriy etiladi;

- jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlarida tergov sudyasi lavozimi kiritiladi;

- jinoyat ishlari bo'yicha sudga qadar ish yurituv davrida tergov sudyasi tomonidan protsessual qarorlarga berilgan sanksiyalar faqatgina apellyatsiya instansiyasida Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston harbiy sudi tomonidan yakka tartibda qayta ko'rib chiqilishi tartibi belgilandi;

- tergov sudyalariga ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolati beriladi;

- tergov sudyalari tomonidan ko'rib chiqiladigan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuqori instansiyalarda qayta ko'rib chiqishning amaldagi tartibi saqlab qolinadi.²

Xususan, 2025 yil 29 yanvardan kuchga kirgan qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Fuqarolik protsessual kodekslariga, shuningdek, «Prokuratura to'g'risida» va «Sudlar to'g'risida»gi qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Eng asosiy o'zgarishlar bu Jinoyat protsessual kodeksida bo'lib, unga ko'ra **kodeks yangi 31-1-modda bilan to'ldirilib**, tergov sudyasining vakolatlari belgilanmoqda.

«Tergov sudyasi yakka o'zi ish tutib, ushbu kodeksda nazarda tutilgan tartibda sudga qadar ish yuritish bosqichida shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustidan sud nazoratini amalga oshiradi. Tergov sudyasining vakolatlari jumlasiga:

- qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish;

- qamoqda saqlash yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish;

- ushlab turish muddatini 48 soatgacha uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish;

- pasportning (harakatlanish hujjatining) amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish;

- lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish;

- ayblanuvchi shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish haqidagi iltimosnomani ko'rib chiqish;

- ayblanuvchining tibbiy muassasada bo'lish muddatini uzaytirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish;

- murdani eksqumatsiya qilish haqidagi iltimosnomani ko'rib chiqish;

² 2024 yilning 10 iyun "Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni

- pochta-telegraf jo'natmalarini xatlashi to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish;
- prokurorning guvoh va jabrlanuvchilarning ko'rsatuvlarini oldindan mustahkamlashi to'g'risidagi iltimosnomalarini ko'rib chiqish;
- tintuv o'tkazish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish;
- telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish to'g'risida iltimosnomalarni ko'rib chiqish;
- mol-mulkni xatlash to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqish kiradi.

Bundan tashqari, qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 245-moddasi quyidagi mazmundagi to'rtinchi qism bilan to'ldirilmoqda: «Ushbu moddada nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining tergov sudyasi tomondan ko'rib chiqiladi». Tergov sudyasi – jinoyat ishlarini yuritishning sudga qadar bo'lgan bosqichlarida faoliyat olib boruvchi, ayblov va himoya tarafining harakatlarini muvofiqlashtirib va nazorat qilib turuvchi hamda ularning o'z huquq va vakolatlarini amalga oshirishlari uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib beruvchi mas'ul mansabdor shaxs hisoblanadi. Vakolat doirasiga ko'ra, tergov sudyasi zimmasiga O'zbekiston Respublikasi JPKda ko'rsatilgan ishni sudga qadar yuritish jarayonida sudning qarori (ajrimi) talab qilinadigan protsessual harakatlar bo'yicha sud vakolatlarining barchasi o'tkaziladi.

Shu tariqa, ish yuzasidan xolislik ta'minlanishiga to'sqinlik qiladigan ko'plab vakolatlarining boshqa bir mustaqil organ ish yurituviga o'tkazilishi natijasida sudga qadar yuritishda taraflar tengligining ta'minlanishiga, bu jarayonda taraflar faoliyati ustidan sud nazoratining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga, shuningdek himoyachining o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishida keng imkoniyatlar va qulayliklar yaratilishiga erishish mumkin.

Bugungi kunda tergov sudyasi instituti dunyoning ko'plab davlatlarida faoliyat olib bormoqda. Xususan, Belgiya, Gretsiya, Iroq, Ispaniya, Niderlandiya va Xorvatiya davlatlarida, ayniqsa Fransiyada o'z faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirib kelmoqda hamda bir qator sobiq sovet ittifoqi davlatlarida ham tergov sudyasi instituti jadallik bilan joriy etilmoqda. Jumladan, 2002 yilda Litvada, 2003 yilda Moldaviya va Estoniyada, 2005 yilda Latviyada, 2013 yilda Ukrainada, 2015 yilda esa Qozog'iston va Gruziyada ushbu institut joriy etildi. Qirg'iziston va Armaniston Respublikalarida esa tergov sudyasi institutini joriy etish masalasi hozirda ko'rib chiqilmoqda.³ Mening shaxsiy fikrlarimga ko'ra bu kabi sud tizimidagi ijobiy o'zgarishlar zamirida fuqarolarimizning huquq va erkinliklari, demokratik mamlakatimizning liberalligi namoyon bo'ladi desak adashmagan bo'lamiz.

Xulosa sifatida shuni aytishim mumkinki, ilgari ushbu lavozimsiz sudlarda ish hajmi va ko'lamini kengaytib, ko'pchilik uchun biroz murakkab jarayon yuzaga keltirgan, va bu holat ishning mazmunan to'g'ri hal qilinishiga ham salbiy ta'sir qilgan. Birinchi navbatda albatta fuqarolar aziyat chekishgan. Bunga bir qator sabablar mavjud bo'lib, jumladan, shaxslarning vaqt bilan bog'liq muammolari yuzaga kelgan, bundan tashqari huquqni muhofaza qiluvchi organ vakillari ham protsessual muddat bilan bog'liq muammolarga duch kelishgan.

Respublikamizda ham jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlarining tarkibida va mavjud shtat birliklari doirasida tergov sudyasi institutining joriy etilishi jinoyat ishini sudga qadar yuritishda ayblov tarafi vakolatlari va himoyachi huquqlarining tengligi ta'minlanishiga imkon berish bilan bir qatorda advokatura institutini rivojlantirish va advokatlar maqomini tubdan oshirishga qaratilgan islohotlarni yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilgan bo'lar edi.

³ Kun.uz maqolasi (*Dilbar Choriyeva, Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti*)

Shuningdek, tuman (shahar) jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda ma'muriy javobgarlikka oid huquqbuzarliklar ham juda ko'p sodir qilinib, sudyalarda ish hajmini keskin ko'payishiga olib keladi. Tergov sudyalari esa ushbu ishlarning ayrimlarini bevosita o'zi tegishliligiga ko'ra ko'rib chiqishi ma'muriy ishlarning sifatini keskin yaxshiladi. Har yilgiga nisbatan e'tirozlar kamayib, tizm tubdan ijobiy tomonga o'zgardi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. 2024 yilning 10 iyun "Tezkor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni
3. «Prokuratura to'g'risida» va «Sudlar to'g'risida»gi qonunlar
4. O'zbekiston Respublikasi Kodekslar to'plami – 1jild
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/tergov-sudyasi-vakolatlarining-o-ziga-xos-jihatlari>